

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA ADABIY ASARLARDAN FOYDALANISH

Nizomova Muslima*O‘zMU Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili)**yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi**Muslimanizomova@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish jarayonida adabiyotning ahamiyati, o‘rni, samaradorligi ochib beriladi. Ingliz tilini o‘rgatish davomida an‘anaviy usullar: grammatika va lug‘at yodlash bilan bir qatorda adabiy asarlarning afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi 4 ta asosiy ko‘nikmalarni: o‘qish, yozish, eshitish, gapirish kabilarni rivojlantirish bilan bir qatorda madaniy aspektlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, grammatik yondashuv, tanqidiy fikrlash, madaniy kontekst, lug‘at boyligi va rang-barangligi.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение, место и эффективность литературы в процессе изучения и преподавания английского языка. Рассматриваются преимущества использования литературных произведений в обучении английскому языку наряду с традиционными методами, такими как грамматика и заучивание словарного запаса. Кроме того, анализируются культурные аспекты, а также развитие четырех основных навыков английского языка: чтение, письмо, аудирование и говорение.

Ключевые слова: художественное произведение, грамматический подход, критическое мышление, культурный контекст, словарный запас и разнообразие.

Abstract. This article reveals the importance, role, and effectiveness of literature in the process of learning and teaching English. It examines the advantages of using literary works in teaching English, alongside traditional methods such as grammar and vocabulary memorization. In addition, it analyzes cultural aspects, as well as the development of four basic English language skills: reading, writing, listening, and speaking.

Keywords: literary work, grammatical approach, critical thinking, cultural context, vocabulary richness and diversity.

Kirish. XX asrning boshlarida adabiyot til o‘rgatishning asosiy manbasi bo‘lgan. Keyinchalik grammatik-qoidaviy usullar ustunlik qilgan davrda adabiyot orqa o‘ringa o‘tgan. So‘nggi o‘n yilliklarda esa kommunikativ yondashuv kuchaygani sababli adabiyot yana til o‘rgatish jarayoniga qayta kiritila boshlandi. Bugungi kunda ko‘pgina tadqiqotchilar adabiy matnlarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim

o‘rin tutishini qayd etadi. Birinchi navbatda, “Adabiy asarlar nima uchun muhim?” savoliga javob topaylik. Bilamizki, eng mashhur ingliz yozuvchilaridan biri bo‘lgan William Shakespeare o‘z asarlarida 1700 dan ortiq yangi so‘z yaratgan. Bu so‘zlar hozirgi kunda ham ingliz tilida faol qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yangi lug‘atlar bilan ishlashda badiiy asarlar samarali yo‘l hisoblanadi. Chunki asar o‘qish jarayonida turli sinonim, antonim, omonimlar bilan birga ishlanadi va bu jarayonda leksik qamrov kengayibgina qolmay, ularning kontekst bo‘yicha qo‘llanilishi ham o‘rgatiladi. Masalan: large, huge, enormous, tremendous kabi sifatlar deyarli bir xil “katta” degan ma‘noni bersa-da, yozuvchi bu so‘zlarni nimaga nisbatan ishlatishiga qarab ularni farqlash mumkin. Lazarning ta‘kidlashicha: “Adabiy matnlar o‘quvchilarga tabiiy (autentik) til materialini taqdim etadi va o‘quvchini shaxsiy jihatdan jarayonga jalb qiladi. Shu sababli adabiyot til o‘rganishda kuchli vositadir. [1;45]” Keyingi asosiy afzalliklaridan biri adabiy asarlar tilning juda keng diapazonini o‘z ichiga oladi, ya‘ni turli xil dialektlar, ijtimoiy qatlam tili, kasbiy jargonlar qo‘shiladi, bu esa turli xil til va madaniyatda shakllangan idiomatik ifodalar, collocationlarni kontekst bilan birgalikda yodlashga yordam beradi va nutqdagi rang-baranglikni ta‘minlaydi. O‘z navbatida o‘quvchilar jonli va aniq nutqni o‘zlashtiradilar. Tilshunos olimlar - Carter va Long fikriga ko‘ra: “Adabiy asarlar o‘quvchini boy va rang-barang lug‘at, tasviriy ifodalar hamda murakkab til strukturalari bilan tanishtiradi. Bunday mazmun darsliklarda deyarli uchramaydi [2;53].” Darhaqiqat, o‘quvchi asar o‘qiganida unda aks etgan tilning ko‘plab xususiyatlarini, xususan, badiiy tasvir vositalari, ifodalar, grammatik qoidalarini o‘rganadi.

Madaniyatni tahlil qilish. Alisher Navoiy aytganidek, “Tilga e‘tibor- elga e‘tibor”, ya‘ni o‘quvchi yangi tilni o‘rganishni boshlagandan so‘ng o‘sha til mansub xalqning, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini ham tadqiq qilinadi. Har bir asar esa o‘z davrining ijtimoiy va madaniy muhitini aks ettiradi. Bu til o‘rganishning ko‘proq global va madaniy yo‘nalishini ham rivojlantiradi.

Grammatik yondashuv. Yillar davomida o‘quvchilar o‘zbek va ingliz grammatikasidagi tafovutdan qiynalishadi va passiv tarzda grammatikani shunchaki ko‘r-ko‘rona o‘rganishadi, lekin aktiv holatda qo‘llay olishmaydi. Masalan bizning turkiy tillar oilasida asosiy zamonlar atigi 3 ta bo‘lsa, ingliz tilda esa ularning soni 12 taga yetadi. Adabiy asarlar ingliz tili grammatikasini ham chuqur o‘rganishga va uni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llashga yordam beradi. Widdowson ta‘kidlashicha: “Grammatikani kontekst orqali o‘rgatish uni ma‘noli qiladi. Adabiy matnlar esa grammatik strukturalarni tabiiy kontekstda o‘z ichiga olgan eng samarali manbadir. [3.67]”

Gapirish ko‘nikmalarini o‘stirish. Adabiy asar o‘qib gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonsizdek tuyilishi mumkin, lekin o‘rgatish davomida asar tahlil va muhokama qilinsa, bu hatto eng uyatchan va sust o‘zlashtiruvchilar uchun ham foydali

bo'ladi. Chunki asarda syujet, obraz va harakatlar ko'p va turli bo'ladi. Asar bo'yicha qisqa bayon va xulosalar qilib gapirib berish esa o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va mustahkamlaydi.

Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchi asarni o'qish jarayonida matnni to'g'ri paragraflarga bo'lishni tahlil qiladi. Ma'no va mazmun jihatdan ko'rib chiqishni va "paraphrase" qilishni ya'ni ma'nosini o'zgartirmagan holda boshqa so'zlar bilan ifodalashni o'rganadi.

Adabiy asarlarni dars davomida ishlatish.

Rolli o'yinlar va dialoglar. Dars davomida asar qahramonlarini o'quvchilarga bo'lib beriladi va deyarli barcha darsga jalb etiladi. Shuning bilan birga eng passiv o'quvchilarning ham qiziqishi ortadi. Masalan, pyesalardan yoki hikoyalardan qismlar olingan bo'lib, o'quvchilar ularni sahnada ijro etishlari mumkin. Bu metod nafaqat tilni o'rganish, balki o'quvchilarning o'zlarini ifodalashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, yoshga va darajaga moslab asar tanlash ham juda muhim, albatta. Asar tanlab bo'lingandan keyin quyidagi ketma-ketlik bo'yicha asarni analiz qilish mumkin:

- Pre-reading: prediktsiya, muallif haqida qisqacha ma'lumot, leksika.
- While-reading: qisqa savollar, true/false, character mapping, dialog rekonstruksiya.
- Post-reading: rolli o'yin, muhokama, essay, creative rewrite, dramatization.
- Extension: madaniyat bo'yicha taqqoslash, loyiha ish (presentation).

Adabiy asarlar doirasida muhokama qilish. O'quvchilar biror badiiy asarni o'qib, uning muhim jihatlarini muhokama qilishadi. Bu jarayon o'quvchilarda tilni o'zlashtirish bilan birga, ularni tilning madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, asar tahlil qilish barobarida o'sha til madaniyati va turmush tarzi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching. Cambridge University Press-45
2. Carter, R. & Long, M. (1991). Teaching Literature. Longman-53
3. Widdowson, H.G. (1975). Stylistics and the Teaching of Literature. Oxford University Press-67
4. Quronov .D "Adabiyotshunoslikka kirish"